

PEDAGOGIK JARAYONDA IQTISODIY BILIMLARNI SINGDIRISH USULLARI

Mirzakulova Risolat Musurmankulovna

Termiz Davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Nurullayev Akmaljon Lutfullayevich

Kamolov Solih Murodovich

Termiz Davlat Pedagogika instituti talablari

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy bilimlarni taqdim etishda keys stadi metodidan foydalanishning didaktik asoslari va o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishdagi funksiyalarni ochib berilgan. Shuningdek, iqtisodiy bilimdonlikni rivojlantirishda keyslardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar keyslarning turlari ko'rsatilib, ularning mazmun mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Keys stadi, didaktik vosita, iqtisodiy ta'lim, iqtisodiy vaziyat, iqtisodiy muammo, dramatizm, ijtimoiy muammo, mantiqiy tafakkur, intellektual, taraqqiyot.

Annotation: This article reveals the didactic basis for using the case study method in presenting economic knowledge and its function in the development of students' cognitive activity. Recommendations for the use of cases in the development of economic knowledge, types of cases and their content are also shown.

Key words: Case stage, didactic tool, economic education, economic situation, economic problem, drama, social problem, logical thinking, intellectual, development.

Jamiyatga har tomonlama rivojlangan, ma'naviy yetuk, teran fikrlaydigan, yuksak iqtisodiy madaniyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masaladir. Chunki har bir inson bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlanib borayotgan bir sharoitda, uni o'rab turgan iqtisodiy voqelikni anglash, tahlil qilish bilan birgalikda iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etish ko'nikmasiga ega bo'lish lozim. Bu bilim va ko'nikmalar asosan umumiy o'rta ta'lim maktablarida beriladi.

Yangi iqtisodiy tushunchalarni o'quvchilarning ongiga shakllantirishda umumiy o'rta ta'lim maktablari shaxsning iqtisodiy munosabatlarga kirishishida asosiy bo'g'in hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan jamiyatda yashash har bir inson ayniqsa, o'quvchilardan iqtisodiy bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish natijasida o'quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, uddaburonlik, hisob-kitob yuritish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchilarning iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda didaktik o'yinlar

vositasida amalga oshirish orqali o'quvchilarni bilish faoliyatini rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Yangi iqtisodiy bilimlarni o'quvchilarda singdirishda keyslar o'quvchining ijodiy ish faoliyatini kuchaytirtiradi, ixtiyoriy diqqati, xotirasini takomillashtiradi. Keysni bajarish jarayonida o'quvchilar o'zlari sezmaganda juda ko'p harakatlarni hamda mashqlarni bajaradilar. O'quvchilarni intellektual rivojlantirishda keys stadi metodi muhim o'rin egallaydi. Keyslarini bajarish jarayonida o'quvchilarda bir qator intellektual ko'nikmalari shakllanadi. Jumladan, vaziyatlarni tahlil qilish, voqea-hodisalarni qiyoslash, vujudga kelgan holatlarni tushuntirish, sharhlash hamda xayol surish kabilar.

Iqtisodiy ta'lim jarayonida yangi texnologiyalarni qo'llash uning natijaviyligini ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. Shunday texnologiyalardan biri - muvaffaqiyatli ishlab chiqilgan keyslardir. Bunday keyslar bir qator talablarga javob berishi kerak. Ular:

- qiziqarli bayon etilishi, sodda va tushunarli bo'lishi, real voqelik bilan bog'langan bo'lishi;

- o'zining «dramatizm»ga egaligi va muammoliligi bilan ajralib turishi;

- har ijobiy, ham salbiy holatlarni namoyon qila olishi;

- muammoning markazini ifodali tarzda aniqlay olishi;

- o'quvchilar guruhining ehtiyojlariga muvofiq kelishi;

- zarur va kerakli hajmdagi axborotlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kabilar. Ba'zi mutaxassislar keyslarni ishlab chiqishga nisbatan qo'shimcha talablar qo'yish g'oyasini ilgari surmoqdalar. Mazkur talablar quyidagilardan iborat:

- mamlakatda mavjud bo'lgan aniq iqtisodiy muammolarni aks ettirishi;

- o'quv guruhi a'zolari va ularning hamkorlari kuchi bilan muammolarni yechish aniqligi;

- o'quvchilar yashaydigan xuddagi dolzarb iqtisodiy muammolar bilan bog'langan bo'lishi;

- aniq iqtisodiy qonun-qoidalar va me'yolarni o'zida aks ettirishi;

- muammolar qo'yish orqali o'quvchilar uning yechilishi zarurligini anglashlariga ko'maklashishi;

- mazkur muammo tarixining aks etishi kabilar.

Mutaxassislar tomonidan ijtimoiy muammolarning bir qator yechimlari taklif qilingan. Ularning ta'kidlashlaricha, agar o'quvchi uylasa yoki keyslarni tuzuvchi mutaxassislarning tajribalari bilan tanishsa taqdim etilgan keyslarga zudlik bilan javob yoza oladi. Bu o'rinda o'quvchilar shunchaki xato qilishlari ham mumkin. Keyslarga javob yoziladigan aniq vaziyatlarda yagona bir qoida amal qiladi: faqatgina aniq vaziyatlar orqali muayyan vaziyatlarni yozishga o'rganish mumkin. Keysni yozishga kirishishdan oldin o'quvchilar umumiy talablar bilan batafsil tanishishlari kerak. Chunonchi:

1. Aniq vaziyatlar o'quvchilarga yo'naltirilishi kerak. Mazkur keyslar ushbu mahsulotning foydalanuvchilari bo'lgan o'quvchilarga yo'naltirilishi lozim. Talab darajasida tuzilgan keyslar o'quvchilarni dalillardan muammolarga olib keladi. Bu muammolarni esa yechish talab qilinadi. Shu tariqa, o'quvchilarga keysda keltirilgan dalillar tushunarli bo'lishi kerak. Birinchi navbatda o'quvchilar keltirilgan dalillar bilan tanishtirilishlari lozim.

2. Keyslarda tasvirlangan dalillar va hodisalar ularni o'rganuvchi o'quvchilar uchun mohiyat kasb etishi lozim. Bu esa keysning tarkibiga muvofiq tarzda uni batafsil qayta ishlashni talab etadi. Shu bilan bir hatorda, keyslarning xarakterini aniqlash zarur. Dalillarni tanlash va ularni bayon etish uslubi keyslarni o'qish jarayonida o'quvchilarni jalb etish imkoniyatiga ega bo'lishi talab etiladi. Bu o'rinda o'quvchining qiziqishi sahifadan sahifaga o'tgan sari ortib boradi.

3. O'quvchilarga birgina keysda muayyan hodisani o'rgatish imkonsiz. Maxsus tuzilgan keyslar turkumi orqaligina o'quvchilarga iqtisodga oid yangi bilimlarni takdim etishi mumkin. Birinchi navbatda keyslar orqali o'quvchilar aniq hodisalarni tahlil qilish tajribasini o'zlashtiradilar. Shuning uchun ham keyslar iqtisodiy ta'lim samaradorligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda keys orqali o'quvchilarda o'zlari qabul qilgan qarorlar uchun mas'uliyatni his etish ko'nikmasi shakllantiriladi. Muhimi shundaki keyslar o'quvchilarni harakatga undaydi.

4. Shuni alohida esda saqlash lozimki, iqtisodiy ta'lim jarayonida keyslardan foydalanish - o'quvchilarni savollarga to'g'ri javob berishga o'rgatish usuli emas, shu bilan bir qatorda, o'quv topshiriqlari va mashqlari ham emas. Fan o'qituvchilari keyslardan foydalanishga harakat qilishlarining asosiy sababi - nimanidir aniq hisobga olish imkoniyatini yaratishdadir. Albatta, ishchan o'yinlar jarayonida keyslar yechishga oid topshiriq berish mumkin emas. Vaholangki o'qituvchilar tez-tez keyslar orqali o'quvchilarning yutuqlarini ta'minlashga harakat qiladilar.

5. Keyslar tom ma'noda keys bo'lishi uchun keltirilgan dalillar yuqori darajada ishonchli bo'lishi kerak. Aniq vaziyatlarni hosil qilish metodiga muvofiq tarzda o'quvchilar aniq vaqelik ishtirokchilari mavqeni egallashlari kerak. Bunday aniq vaziyatlar shunchaki o'ylab topilmasligi, balki hayotiy xarakter kasb etishi lozim. Aks holda o'quvchilar vaziyatlarning soxtaligi tez anglab jarayonga bo'lgan qiziqishlarini yo'qotadilar.

Keyslarning maksimal darajada aniq voqelikni aks ettirishi o'quvchilarning aniq iqtisodiy harakatlarni o'rganishga ehtiyoj sezishlari bilan bog'liq. Ular qachon, qayerda, kim bilan harakat qilishlarini aniq bilishlari talab etiladi. Ko'pchilik o'quvchilar nima qilish kerakligini biladilar. Biroq ularning ko'pchiligi nimani bilsalar shuni bajaradilar. Bu hol

natijalarni olish jarayonidagi keskin farqda namoyon bo'ladi. Harakatlar haqidagi bilimlar o'quvchilarning ko'nikmalari va layoqatlarini rivojlantiradigan bilimlardir.

Keyslar ularda ifodalangan dalillar va hodisalarning yuqori darajadagi rivojlanuvchanligi bilan farqlanadi. Shuning uchun ham keyslarning uslubiyoti o'z tarkibida harakat fe'llarini birlashtirishi kerak. Bu jarayonda fikrlarning bayoni vaqtni aks ettirishi lozim. Yaxshi tuzilgan keyslarda o'quvchilarning savollarini hisobga olish talab etiladi. Ularga muayyan dalillarni muhokama qilish jarayonida bahsga kirishish imkoniyatini bermaslik kerak. Buning uchun keys tarkibidagi jadvallar va chizmalarni zarur raqamlar bilan to'ldirish talab etiladi. O'quvchilarning axborot bosimlarini kamaytirish uchun bularning barchasi o'qituvchi tomonidan tahrir qilinishi lozim. Bu jarayonda to'g'ridan-to'g'ri tahririy izohlarni qabul qilishga o'quvchilar qiynaladilar. Agar buni bajarish zarur bo'lsa matn qahramonlaridan birining nutqiga singdirish talab etiladi. Bunday vaziyatlarda izohlar dalil darajasida namoyon bo'lib o'quvchilar qahramonlar xatti-harakatlarini osongina ushunib oladilar.

Keyslarga axborotlarni joylashtirishda mustaqil mazmunga ega bo'lgan yangi bilimlar izoxdar shaklida taqdim etilishi lozim. Bunda vaziyatlarni batafsil tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar taqdim etilishi kerak. Shu bilan bir qatorda dalillar miqdori muammosi ham mavjud. Bu jarayonda keysni ishlab chiquvchi o'qituvchi oldida nimani qoldirish, nimani chiqarib tashlash muammosi turadi.

Metodik tavsiyalarda keyslardan foydalanish haqida ko'rsatmalar beriladi. Bunda o'qituvchi aniq vaziyatlarni takrorlashdan saqlanishi talab etiladi. U talab etilgan kontekst, tovush, tashqi muhitni to'liq tasvirlab berishi kerak. Sun'iylik - muayyan vaziyatlarni tashkil etishda to'siq bo'ladigan asosiy holatdir. Keyslarda o'rganilayotgan muammo bilan dalillar o'rtasida muvozanatni saqlash nihoyatda zarur hisoblanadi.

Aniq vaziyatlar o'z mohiyatiga ko'ra katta ziddiyatni ifodalashi lozim. Xuddi mana shu ziddiyat o'quvchilarda turli nuqtai nazarlarning hosil bo'lishini ta'minlaydi. O'quvchilarda hosil bo'lgan turlicha nuqtai nazarlar ularda muayyan ziddiyatlarga nisbatan turlicha munosabatning namoyon bo'lishiga olib keladi. Keyslarni yozishdan oldin o'quvchilarga savollar berish foydalidir. Masalan, o'quvchilarga nima uchun siz muayyan vaziyatni tasvirlab yozasiz, degan savol bilan murojaat qilish mumkin. Mazkur savolga javob qaytara turib o'quvchilar muayyan ma'lumotni tasvirlash kerak emasligini tushunib yetadilar va o'z e'tiborlarini muhim voqelik va dalillarga qaratadilar. Birinchi navbatda o'quvchilar keysda qanday muammo aks etishi va uning qaysi jihatlariga e'tibor qaratishlari lozimligini tushunib yetishlari zarur. Xuddi mana shu o'rinda muammo bilan o'quvchilarning materiallari orasidagi aloqadorlik namoyon bo'ladi. Ma'lumki, iqtisodiy ta'lim jarayonida o'rganiladigan har bir muammo o'quvchilar uchun qiziqarli hisoblanadi. Ularni turlicha uyg'unlashtirish

muayyan guruhga mansub muammolarni yechish imkonini beradi. Buning uchun qo'yilgan muammolar yuzaki xarakter kasb etmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Inoyatova, A.Nosirov, M.Divanova, G.Boymurodova, A.Baxromov, M.Rasulova F.Abduqudusova. Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash. Toshkent- 2014
2. Otaniyozov B.J. Iqtisodiy masalalarni matematik modellashtirish asosida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish: Ped. fan. nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T-2000.
3. Rayzberg B.A. Tvoya ekonomika. Uchebnoye posobiye. M.: "Osb-89", 1996.-208s.
4. Sariqov M., Haydarov B. Iqtisodiy bilim asoslari. 9-sinf uchun darslik.-T.: "Mehnat", 2002.- 104 b.
5. Sobirov B.B. O'quvchilarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda innovatsion usullardan foydalanishning pedagogik asoslari: Ped. fan. nomzodlik diss... avtoreferata. T.: - 2004.-20 b.
6. Umarova X.A. Iqtisodiy bilim va tushunchalarni o'rganishga yo'naltirilgan o'quv materiallari. // Xalq ta'limi.-№4-2002.
7. Jumayeva Feuza Sayidovna - O'QUVCHILARGA IQTISODIY BILIMLARNI TAQDIM ETISHDA KEYS STADI METODIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK ASOSLARI- Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. 2024-yil.
8. Mirzakulova Risolat Musurmankulovna " YASHIL MOLIYA VA BARQAROR INVESTITSIYA STRATEGIYALARI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR" MANAGEMENT, MARKETING AND FINANCE INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 3. -158-160, 2025-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15269292>
9. Mirzakulova Risolat Musurmankulovna "YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI. THE NEED FOR A TRANSITION TO A GREEN ECONOMY. НЕОБХОДИМОСТЬ ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ" . МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. -SJIF2024 =5.444, 2025-yil.
10. Mirzakulova Risolat Musurmankulova, Qodirova Shohista "QISHLOQ XO'JALIGINI YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH"

Международный научный журнал

№ 33 (100), часть

1 «Новости образования: исследование в XXI веке» Май 2025.

11. Mirzakulova Risolat Musurmankulovna, Qurbonboyeva Marhabo Davlatboyevna “YASHIL ENERGETIKA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA” ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION. -166-171, 2025-yil.

12. Mirzakulova Risolat Musurmankulovna “WAYS OF EFFECTIVE USE OF COCKTAIL RESOURCES IN ECONOMIC NETWORKS” EUROPEAN INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND MANAGEMENT STUDIES. -100-103, 2023-yil. DOI: <https://doi.org/10.55640/eijmrms-03-02-19>

13. Baqirov, T. (2021). “Yashil iqtisodiyotga o‘tish: O‘zbekiston tajribasi.” O‘zbekiston Respublikasi ilmiy jurnali.